

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
huzuridagi Toshkent islom universiteti
“fiqh, iqtisod vatabiiy fanlar” fakulteti
“xalqaro iqtisodiy munosabatlar” kafedrası
“jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar”
yo'nalishi

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar fanidan

KURS ISHI

Mavzu: Jahon savdosida arab mamlakatlarning ulushi

Bajardi: JIXIM yo'nalishi 3-kurs talabasi
Boboxo'jayev Faxriddin

Ilmiy rahbar: dotsent Zokir Sodiqov

TOSHKENT-2011

Reja:

Kirish.....	3
1. Arab mamlakatlarining iqtisodiy salohiyati va ularning tasniflanishi.....	6
2. Arab mamlakatlari rivojlanish tendensiyalari va o'ziga xos xususiyatlari...	18
3. Jahon savdosi va arab mamlakatlari	30
Xulosa	39
Adabiyotlar ro'yxati.....	41
Ilova	42

Kirish

“XXI asr, shubhasiz, xalqaro munosabatlarda butun dunyo qamrab olinadigan asr bo’ldi. Bunday sharoitda integratsiya jarayonini, xalqaro institutlar va tashkilotlarda suveren davlatlarning ishtirok etishini kengaytirish jarayonini faqat tarix taqozosi deb emas, balki ayrim mintaqalar ko’lamida ham, shuningdek, umuman - butun sayyoramiz ko’lamida ham sobitqadamlik, barqarorlikning qudratli omili deb hisoblamoq zarur”¹.

Yurtboshimiz ta’kidlaganidek globallashuv sharoitida har qanday davlat chetda turgan holda, yolg’iz rivojlana olmaydi. Shuni yana inobatga olish lozimki, bu asr texnika taraqqiyoti asri deb ham nomlanadi. Tehnikani rivojlantirish uchun esa,

¹¹ Karimov.I.A, O’zbekiston buyuk kelajak sari, Toshkent:“O’zbekiston”,1998-yil, 657-bet.

albatta, energetikaga muhtojlik juda katta bo'ladi. II jahon urushi arafasida topilgan katta miqdordagi neft zaxirasi jahon iqtisodiyotida ulkan yutuqlarga erishish uchun asosiy omil bo'ldi. Hozirda 1-rasmiy tili arab tili hisoblangan 22 mamlakat ham jahon bozorida o'ziga yarasha o'rin va afzalliklarga ega. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng yurtboshimiz tashabbuslari bilan barcha arab mamlakatlar bilan mustahkam aloqalar o'rnatildi, ko'plab manfaatli shartnomalar imzolandi. Oxirgi besh yil ichida arab mamlakatlari bilan hamkorligimiz yuqori darajada o'sdi. Masalan Quvayt, Qatar, Saudiya Arabistoni, O'mon, Misr va Bahrayn kabi iqtisodi baquvvat arab mamlakatlari bilan hamkorligimiz tobora yaxshilanib bormoqda. Nafaqat O'zbekiston, balki dunyodagi yirik davlatlar ham ayrim arab mamlakatlari bilan aloqalarini mustahkamlashga harakat qilmoqda. Misol uchun AQSh arab mamlakatlari hisoblangan Saudiya Arabistoni, Qatar, Birlashgan Arab Amirliklari va Bahrayn kabi neft va gazga boy arab mamlakatlari bilan aloqalarini yaxshilashga harakat qilmoqda va ko'plab shartnomalar imzoladi va imzolamoqda ham. Kanada va Saudiya Arabistoni o'rtasidagi juda katta ahamiyatga molik ikki neft kompaniyalari o'rtasidagi ittifoq ham ularning aloqalarini mustahkamlash uchun bir misol hisoblanadi. Bundan tashqari Yevropaning yirik davlatlari ham Fors ko'rfazi mamlakatalari bilan mustahkam aloqalarga ega.

1960-yilda asos solingan OPEC tashkiloti tarkibiga kiruvchi davlatlarning asosiy qismini arab mamlakatlari tashkil etadi. Dunyodagi qaysi inqirozni olmaylik, barchasi neftga uzviy aloqador deya e'tirof etishadi iqtisodchi olimlar. Neft esa faqat Fors ko'rfazi mamlakatlarida emas, balki Janubiy Afrika qit'asidagi arab mamlakatlarida ham katta miqdorda mavjuddir.

Qolaversa, arab mamlakatlarini birlashtirib turuvchi arab tili Birlashgan Millatlar Tashkilotining 6 rasmiy tilidan biri ekanligi hammaga ma'lum. Arab tili 280 mln kishi tomonidan rasmiy 1-til sifatida so'zlashiladi. Badiiy arab tili 22 mamlakaning rasmiy tili hisoblanadi. Bu til 7-asrdan boshlab qo'llanila boshlangan. Arab mamlakatlari musulmonlari dunyodagi 1.2mlrd

musulmonlarning sal kam chorak qismini tashkil etadi. Kurs ishida arab mamlakatlari, undagi o'ziga xos xususiyatlar, rivojlanish tendensiyalari va bosqichlari kabi bir qator iqtisodiy ko'rsatkichlari bilan tanishishingiz mumkin.

Bundan tashqari arab mamlakatlarining asosiy savdo sheriklari, ularni bog'lab turuvchi tarmoqlar va albatta arab mamlakatlarining jahon savdosidagi o'rni kabi ma'lumotlar ham keltirib o'tiladi. Bu davlatlarning arab mamlakatlari deb nomlanishiga asosiy sabab bu davlatlarning katta qismi arablar ekanligidir. Janubiy Afrikadagi Braziliyani olamizmi, Shimoliy Amerikadagi AQShnimi, Avstraliyanimi yoki Yevropa mamlakatlarinimi, bu hududlarda arab millatiga mansub shaxslar katta miqdorda ekanligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Misol uchun, Braziliyada 6mln, AQShda 3.5mln, Fransiyada 2mln, Italiyada 1mln 950ming, Gongkongda esa 405ming arab istiqomat qiladi. Bu katta ko'rsatkichlardan shuni aniqlash mumkinki, arablar dunyo bo'ylab keng yoyilgandir. Ya'ni bu mamlakatlar iqtisodiyoti dunyoning barcha tomoniga ta'sir etmay qolmaydi.

Oxirgi paytlarda yuz berayotgan arab mamlakatlaridagi namoyish va chiqishlar, albatta, umum arab davlatlari iqtisodiyotiga salbiy ta'sir etmoqda.

Bu mavzu orqali siz arab mamlakatlari iqtisodiy salohiyati va ularning tasnifi, ushbu davlatlarning o'ziga xos rivojlanish tendensiyalari va jahon miqyosida umumiyga nisbatan ulushlari haqida ma'lumotlar olib, bilim doirangizni oshirishingiz mumkin. Iloji boricha oxirgi ma'lumotlarga tayangan holda bildirilgan mulohazalar va qisman hozirda arab mamlakatlarida sodir bo'layotgan voqealarning arab mamlakatlari iqtisodiyotiga ko'rsatayotgan ta'siri xususida ham fikrlar bilan tanishishingiz mumkin.


1. Arab mamlakatlarining iqtisodiy salohiyati va ularning tasniflanishi.

Arab mamlakatlari haqida umumiy ma'lumot olish uchun, avvalambor, Arab ligasi haqida ma'lumotga ega bo'lmoq zarur. Bu davlatlar hamjihatlikda faoliyat olib borib, jahon miqyosida iqtisodiy o'sishga katta miqdorda hissa qo'shib kelmoqda. Quyida bir qancha arab mamlakatlarining iqtisodiy vaziyati haqida ma'lumotlar keltirilgan. G'arbiy Osiyo mamlakatlaridan faqat Turkiyagina arab mamlakatlari safiga kirmaydi. "Mamlakatlar rivojlanish darajasini ko'rsatuvchi asosiy ko'rsatkich aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaMMdir. Bu me'yorga asosan mamlakatlar 4 guruhga ajratiladi: yuqori, o'rtachadan yuqori, o'rtachadan past va kambag'al mamlakatlar"². Men ham ushbu mamlakatlarning iqtisodiy ko'rsatkichlari haqida ma'lumotlarni 2009-yilgi aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YaIMining hajmiga ko'ra guruhladim. Dastavval, ushbu ko'rsatkichi yuqori bo'lgan davlatlarni quyidagi kabi tasniflab chiqildi.

Birlashgan Arab Amirliklari iqtisodiyoti.

² A.A.Isadjanov, G.P.G'ulomova, "Jahon iqtisodiyoti (I qism), Toshkent Islom Universiteti nashriyot-birlashmasi Toshkent-2008, 12-bet.

BAA YaIMning o'sishi 2010-yilga nisbatan 3,2%, Inflyatsiyaning tushishi esa 1%. BAA iqtisodiy o'sishi 2010-yilda 3,2%, uning katta qismi neft bo'lmagan sektorlardan, inflyatsiyaning tushishi 1% kutilmoqda edi. YaIMning o'sishida 71% neftsiz maxsulotlarga to'g'ri keladi, 2008-yilda bu ko'rsatkich 66,5% edi. Savdo tashkilotlari OPEC va WTO. Asosiy import hamkorlari: Xitoy 12,9%, Hindiston 12%, AQSH 8,6%, Yaponiya 6%, Turkiya 4,4%, Italiya 4,2%. Tashqi Qarzi \$128,6 million (2009-yil dekabr ma'lumoti), Davlat qarzi 47,2%, Zarari \$54,68 mlrd. (2009). YaIMda qishloq xo'jaligi (1,6%), sanoat (61,8%), xizmat ko'rsatish (36,6%) ulushga ega.



Ishsizlik 12,7%. Asosiy sanoatlari: Neft, baliqchilik, aluminiy, sement, kemasozlik, qayiqsozlik, tikuvchilik, to'qimachilik. Eksport tovarlari: Neft va neft maxsulotlari, tabiiy gaz, quritilgan baliq. Asosiy eksport hamkorlari: Yaponiya 26,5%, Janubiy Koreya 10,9%, Hindiston 10,7%, Eron 7,5%, Tayland 6,1%. Import maxsulotlari: mashina texnologiyalari, kimyoviy maxsulotlar, oziq-ovqat.

Saudiya Arabistoni iqtisodiyoti.

Mamlakat 1932-yil 23-sentabrda mustaqil bo'lgan.

YAIM(ppp) 2010

Umumiy 618.744mlrd\$

YAIM(nominal) 2010 yil

Umumiy 438.009 mlrd\$

Jon boshiga 16,778.112\$

Jon boshiga 23,701.260\$.

Saudiya Arabistonining jon boshiga to'g'ri

Yuqorida 2007-2009 yillarda jon boshiga YaIMdagi o'zgarishlarga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Saudiyaning 80% ishchilari immigranlar hisoblanadi. Ishsizlik darajasi 2009-yil 11.6%ga yetdi. Ishchi kuchi tarmoqlar bo'yicha quyidagicha taqsimlangan:

Xizmatlarda 71%

Sanoatda 20%



Qishloq xo'jaligida 7%

*Ishchi kuchining tarmoqlar bo'yicha taqsimlanishi*⁴

Qatar iqtisodiyoti.

Qatar 2008-yil YaIM ning o'sishi bo'yicha 19.4% ko'rsatkich bilan 3-o'rinni egalladi. Qatar YaIMi tarkibining 50%i, eksportdan tushumlarning 85%i va hukumat daromadining 70%i neft va gaz sanoati orqali hosil qilinadi. Hozirda Qatar


tabiiy gaz zaxirasi 25.47trillion kub.metr deya baholanmoqda. Bu degani Qatarning bir o'zida dunyo tabiiy gaz zaxirasining 15%i joylashgan deganidir.



³ <http://www.economywaych.com> sayti ma'lumotlari

⁴ <http://www.economywaych.com> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

2010-yil YaIMining tarkibida 78.8% sanoat sohasi, xizmatlar sohasi 21.1% va qishloq xo'jaligi esa 0.1% hissaga ega. Nafaqat O'rta Sharqda, balki barcha arab mamlakatlari orasida Qatar kimyoviy



mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yich Saudiya Arabistonidan keying 2-o'rinda turadi. 57.82 mlrd\$ deb baholangan Qatar eksporti, asosan STG, neft mahsulotlari, o'g'it va po'lat eksport qilish orqali hosil qilinadi. Asosiy eksport hamkorlari:

Yaponiya	34.68%	J.Koreya	22.4%	Singapur	10.3%	Hindiston	8.34%
Boshqalar	24.28%						

Qatarning asosiy eksport hamkorlari⁵

Asosiy import tovarlari mashina va transport jihozlari, oziq-ovqat va himikatlar. Qatar importining umumiy hajmi 2010-yil 23.38mlrd\$ni tashkil etdi.

Quyidagi davlatlar Qatarning asosiy import hamkorlari:

AQSh	14.43%
Italiya	8.34%
Janubiy Koreya	8.33%
Yaponiya	8.04%
Boshqalar	60.86%

Qatarning asosiy import hamkorlari⁶

⁵ <http://www.economywaych.com> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

⁶ <http://www.economywaych.com> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Ishsizlik darajasi 0.5%, Qatarning aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YaIMi harid qilish qobiliyati bo'yicha 88,232.51 AQSh dollariga teng deya baholandi. Bu miqdor 2015-yilda 116,996.84 AQSh dollariga yetkazish maqsad qilib qo'yilgan. 2010-yil Qatar YaIMi 16.95%, ya'ni 128.26 mlrd\$ dan 149.995 mlrd\$ ga o'sdi. 2011-yil oxirida Qatar YaIMi 180.05mlrd\$ ga yoki 20.05% o'sishi rejalashtirilgan.

Quvayt iqtisodiyoti.

Quvayt davlati hududi 17,820 km.kv. 1961-yil 19-iyunda mustaqilligini e'lon qildi. 2010-yil quyidagi ma'lumotlar kuzatildi: hududi – 17,820 km.kv(157-o'rin), aholisi – 3,566,437(130-o'rin), YaIM(ppp) – 140.589 mlrd\$, aholi jon boshiga YaIM(ppp) – 38,984\$, YaIM(nomin) – 135.062 mlrd\$, aholi jon boshiga YaIM(nomin) – 37,451\$. YaIM o'sish sur'ati 5.7%. Quvayt arab olamida yuqori tezlik bilan o'sayotgan davlat hisoblanadi. 2008-yili Iqtisodiy Erkinlik Indeksi ma'lumotlariga ko'ra Quvayt O'rta Sharqdagi eng erkin iqtisodiyotga ega bo'lgan davlatlar orasida 2-o'rinni egalladi. Aholisi tarkibi: 33.4% quvaytliklar, 34.8% boshqa arablar, 24.3% osiyoliklar, 5.4% yevropa va amerikaliklar, 2.1% eronliklar. Quvayt 104 mlrd barel neft zaxirasiga egaligi aniqlangan. Bu dunyo zaxirasining 10%ini tashkil etadi. Ayni damda kunlik ishlab chiqarilayotgan 2.8 million barel neft hajmini 2020-yilga qadar 4 million barelga oshirish mo'ljallangan. Neft va neft kimyodan keluvchi foyda YaIMining yarmini va eksportdan tushadigan tushumning 95%ini tashkil etadi. Hukumat 2008-yilgi inqirozda ancha zarar ko'rdi. 2009-yil Quvayt Markaziy Banki 5.15 mlrd AQSh dollari miqdoridagi mablag'ni iqtisodiyotni jadallashtirishga safarbar qildi.

Bahrayn iqtisodiyoti.

Hozirda Bahraynda xizmatlar sohasi YaIMning 41.5%ini tashkil etadi. Moliya va turizm sohasi ham iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishda asosiy o'rinni

egallamoqda. Moliya tizimining o'zi YaIMda 27% ulushga ega. Iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishdan asosiy maqsad iqtisodiyotni neftga bog'liq bo'lib qolmasligi uchun zamin yaratish.

Neft va neft mahsulotlari ishlab chiqarish Bahrayn eksportining 60%ini, davlat tushumlarining 70%ini hosil qiladi.

2010-yil Bahraynning kunlik neft ishlab chiqarishi 48,520 barel/kunni tashkil etgan, 2007-yil bu ko'rsatkich 48,610 barel/kun bo'lgan.

Ishsizlik 2005-yil 15% dan 2010-yil 3,7% gatushgan.

611,000 kishilik ishchi kuchidan 44%i norezidentlar va xorijliklar hisoblanadi.

2010-yil Bahrayn YaIMi 3.955% hisobida o'sib, 29.663mlrd AQSh dollariga yetdi.

Eksport hajmi 15.13 AQSh dollari (2010-yil). Eksport hamkorlari Hindiston(4.2%), Saudiya Arabistoni(2.78%).

Importi hajmi 12.13 AQSh dollari (2010-yil). Import hamkorlari: Saudiya Arabistoni(22.91%), Fransiya(9.76%), AQSh(7.95%), Xitoy(6.4%), Janubiy Koreya(5.26%), Yaponiya(5.19%), Germaniya(5.01%) va Birlashgan Qirollik(4.34%).

Liviya Jamahiriyyasi iqtisodiyoti.

Liviya iqtisodiyotida neftning ahamiyati katta hisoblanadi. Neft sektori eksportdan tushumning 95%, YaIMining 25%, hukumat daromadining 80% hissasiga ega. Oxirgi paytlarda sodir bo'layotgan qo'zg'olonlar natijasida BMT katta cheklovlar o'rnatdi. Natijada neft eksportining 2/3 qismi to'xtatildi.

YaIM (PPP): 77.912 mlrd AQSh dollari, aholi jon boshiga: 12,062 AQSh dollari

YaIM o'sish sur'ati: 10.63%

YaIMda sektorlar ulushi : qishloq xo'jaligi: 4.2%, sanoat: 61.7%, xizmatlar: 35.1%

Budjet daromadlari: 35.08 mlrd\$, xarajatlari esa: 35.9 mlrd\$

Hukumat qarzi YaIMning 6.5%ini tashkil etadi.

Ishsizlik darajasi: 20% - 30% (broad estimates)

Iordaniya iqtisodiyoti.

Iordaniya YaIM(ppp)i 2010-yil 34.617 mlrd\$ni tashkil etdi. Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YaIM(ppp) bo'yicha 5,685.79 \$ ko'rsatkich bilan 107-o'rinni egalladi. 2011-yil yana qariyb 200\$ miqdorida oshishi kutilmoqda. Ishsizlik darajasi - 13%. 14.2% aholisi qashshoqlik chizig'idan pastda yashaydi. Inflyatsiya darajasi o'rtacha 5.506% bo'ldi.

Tunis iqtisodiyoti.

Tunis davlati YaIMi 2010-yil 3.79% o'sish bilan 43.863 mlrd\$ni tashkil etdi. Ishchi kuchining sohalar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

Qishloq xo'jaligida: 10.8% ,Sanoatda: 28.3%, Xizmatlarda: 61%.

YaIM(ppp) 2009-yil 86.086 mlrd\$ bo'lgan. Aholi jon boshiga 8,254\$dan to'g'ri kelga. Ammo nominal bo'yicha hisoblanganda bu ko'rsatkich 3,851\$ hisoblangan. Tunisda turizm sohasining YaIMdagi ulushi 7% deb baholandi. Bu sohada 2009-yil 370,000 ishchifaoliyat yuritgan. Asosiy hamkori Yevropa Ittifoqi mamlakatlari hisoblanadi. Tunisning 72.5% import va 75% eksporti Yevropa Ittifoqi bilan amalga oshadi. YaIMning 6% qismi ta'limni rivojlantirishga yo'naltiriladi.

Jazoir iqtisodiyoti.

Jazoir davlati iqtisodiyotida 2010-yil kuzatilgan ayrim ma'lumotlar:

Aholisi: 35,423,000 kishi.

YaIM(ppp): 252.189 mlrd\$, aholi jon boshiga: 7.104\$.

YaIM(nominal): 158.969 mlrd\$, aholi jon boshiga: 4.478\$.

Yoqilg'i energetika sohasi budget daromadlarining 60%ini, YaIMning 30%ini va eksportdan tushumlarning 95%ini tashkil etadi.

Misr iqtisodiyoti.

2010-yil Misr iqtisodiyoti 498.1 mlrd.dollar miqdoridagi YaIM(ppp) bilan G20ga a'zo bo'lmagan eng katta iqtisodiyotli mamlakatlar orasida 26-o'rinni egalladi. Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YaIM 6,367.43\$ bilan jahonda 103-o'rinni egalladi. YaIM(nominal)i 215.845 mlrd.dollar deya baholandi. Bu holatda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM(nominal) 2,758\$ bo'ldi. XVF(IMF) ma'lumotlariga ko'ra 2011-yil 532.568 mlrd.dollarga yetishi kutilgan edi. 2010-yil YaIM o'sish sur'ati 5.259% bo'ldi. 51% aholisi farovonlik chizig'idan pastda yashaydi, ya'ni kuniga 2\$ dan kam mablag'ga kun ko'radi. Ishchi kuchi 25.8 million kishi, ishsizlik darajasi 9.2%, inflyatsiya darajasi 11.703%, umumiy hukumat qarzi YaIMning 74.216%ini tashkil etdi.

Sudan iqtisodiyoti.

Sudan davlati Janubiy Afrika qit'asidagi hududi katta davlatlardan biri hisoblanadi. YaIM(ppp): 92.037 mlrd.dollar, aholi jon boshiga: 2.309 dollar (2009-yil), YaIM(nominal): 58.029 mlrd.dollar, aholi jon boshiga: 1.522 dollar (2008-yil). Sudan asosiy eksport tovarlari: go'sht mahsulotlari, yeryong'oq va shakar va boshqalar. Importi hajmi yildan-yilga tushib bormoqda. Asosiy import tovarlari: ishlab chiqarilgan tovarlar, transport jihozlari, meditsina, kimyo mahsulotlari va boshqalar. Quyida Sudannning asosiy eksport va import hamkorlari keltirilgan(2009-yil).

Sudannning asosiy eksport va import hamkorlari ⁷

Eksport		Import	
Xitoy	48%	Xitoy	20.30 %
Yaponiya	32.30%	Saudiya Arabistoni	8.50 %
Indoneziya	5.30%	BAA	6.30 %

Iroq iqtisodiyoti.

Iroq davlati, ayni damda, ahvoli o'gir arab mamlakatlari safiga kiradi. YaIMining hajmida tushib-chiqish holatlari doimiy ravishda kuzatilgan. Masalan, YaIM o'sish sur'ati 2007-yil 1.5%, 2008-yil 7.8% va 2009-yil 5.8% bo'lgan. YaIM(ppp) 2009-yil 111.5 mlrd.dollar bo'ldi va aholi jon boshiga to'g'ri kelishi bo'yicha 3,570\$ (2009-yil) bo'lgan. Ishchi kuchi 2008-yilda 8.175 million kishini tashkil etdi. Ishsizlik darajasi esa 15.2%ga tushdi. 25% aholisi qashshoqlik chizig'idan pastda yashaydi. 2009-yil inflyatsiya darajasi 3.5%ga yetdi. 80% tashqi qarzi Parij Klubining hissasiga to'g'ri keladi. Iroqda 143.1 mlrd barel neft zaxirasi aniqlangan va dunyoda neft zaxirasi bo'yicha 2-o'rinda turadi. Kuniga atiga 2.5 million barel neft ishlab chiqariladi.

Marokash iqtisodiyoti.

2010-yil Marokash Qirolligi iqtisodiyotida quyidagi vaziyatlar kuzatildi: YaIM 4% o'sish sur'ati bilan 91.702 AQSh.dollarga yetdi. Ishsizlik darajasi: 9.6%, 2011-yil bu ko'rsatkichni 9.1%ga tushirish rejalashtirilgan.

YaIMda sohalarning ulushi quyidagicha: Qishloq xo'jaligi: 14.7%, Sanoat: 38.9%, Xizmatlar: 46.5%.

Suriya iqtisodiyoti.

⁷ CIA World Factbook reports for 2009.

Suriya kambag'al mamlakatlar safiga kiradi. Kuniga 400.4 ming barel neft ishlab chiqaradi. Qishloq xo'jaligida sabzavot, paxta va mevalar yetishtirilib, eksport ham qiladi. 2010-yilgi baholarga ko'ra sohalarning YaIMdagi ulushlari quyidagicha:

Qishloq xo'jaligi: 17.6%, Sanoat: 26.8%, Xizmatlar: 55.6%.

YaIMning 21.5% qismi investitsiya orqali hosil qilinadi. Ishsizlik darajasi esa 8.3% ga yetdi. Hozirdagi namoyishlar Suriya iqtisodiyotiga katta salbiy ta'sir ko'rsatadi deya baholanmoqda.

Mavritaniya iqtisodiyoti.

Mavritaniya Janubiy Afrika qit'asidagi daromadi past davlat hisoblanadi. 2008-yil Mavritaniya iqtisodiyotida quyidagi vaziyatlar kuzatilgan:

YaIM(ppp): 6.232 mlrd\$, aholi jon boshiga 2.055 \$dan to'g'ri keladi.

YaIM(nominal): 3.161 mlrd\$, aholi jon boshiga 1.042 \$dan to'g'ri keladi. Mavritaniya aholisi 2009-yil 3,291,000 kishiga yetdi. Ishchi kuchining 50%i baliqchilik va qishloq xo'jaligida, 20%i hukumat doirasida, 20%i xizmat va savdoda va 10%i sanoat va transport tizimida faoliyat yuritadi. 70% oziq-ovqat mahsulotlari import qilinadi. 2008-yildagi boshqoli ekinlar narxi oshgani sababli mamlakatda ocharchilik 8%dan 12%ga oshdi.

Livan iqtisodiyoti.

Aholisi soni 4.5 milliondan ortiq bo'lgan Livan davlati 2010-yil quyidagi natijalarga erishdi:

YaIM(ppp): 58.576 mlrd\$, aholi jon boshiga 14,988 \$dan to'g'ri keladi.

YaIM(nominal): 37.040 mlrd\$, aholi jon boshiga 9,479 \$dan to'g'ri keladi.

2010-yil Livanning publik qarzi YaIMining 150.7%ini tashkil etdi.

World Bank 2010-yil YaIMning o'sishini 7% deya baholadi. Livanning yana bir afzalligi YaIMining 20%i tashqi dunyodan keladi.

Komor orollari iqtisodiyoti.

Komor orollari o'z nomi bilan orollardan tashkil topgan bo'lib, iqtisodiyoti past darajadagi hudud hisoblanadi. 2009-yil iqtisodiyotida bo'lgan ko'rsatkichlar:

YaIM(ppp): 772 million\$, aholi jon boshiga 1.159 \$dan to'g'ri keladi.

YaIM(nominal): 532 million\$, aholi jon boshiga 798 \$dan to'g'ri keladi. Ishsizlik darajasi 14.3%. aholining zichligi yuqori. Baliqchilik, ovchilik va o'rmonchilik qishloq xo'jaligining asosi hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi YaIMning 40%ini tashkil qiladi va 80% ishchi kuchi su sohada band hisoblanadi.

Jibuti iqtisodiyoti.

Aholisi 864 mingdan ortiq bo'lgan Jibuti davlati YaIM hajmi yilliga 3.5% miqdorda o'sadi. Sohalarning YaIMdagi ulushlari quyidagicha: xizmatlar – 81.9%, sanoat – 14.9% va qishloq xo'jaligi – 3.2%. 2008-yil ishsizlik darajasi 59% ga yetdi. Oziq-ovqatga bo'lgan mamlakatdagi talabning atiga 3%ini qondira oladi. Jibuti daromadi, asosan, port, temir yo'l, hukumat boshqaruvi, aeroport va qurilish sanoatidan keladi. Jibutidagi Fransiya harbiy bazasi mavjudligi hamda Jibutining tranzit hudud bo'lgani unga ma'lum darajada ko'mak beradi. 2008-yilda iqtisodiy ko'rsatkichlari: YaIM(ppp) – 1.877 mlrd\$, aholi jon boshiga 2,392 \$dan to'g'ri keladi. YaIM(nominal) – 982 million\$, aholi jon boshiga 1,252 \$dan to'g'ri keladi.

Yaman iqtisodiyoti.

Yaman Osiyoning janubiy-g'arbiy qismida joylashgan. U arab olamidagi eng kambag'al va kam rivojlangan mamlakatlardan biri hisoblanadi. 2009-yil ishsizlik darajasi 65% bo'lgan. Tabiiy resurslari asta-sekin kamaymoqda. Neft zaxirasi oz bo'lgani bilan katta miqdorda gaz zaxirasi mavjud. Suyuqlashtirilgan tabiiy gaz zavodi birinchi bo'lib 2009-yil ishga tushirilgan. 2009-yil Iqtisodiy ko'rsatkichlari: YaIM(ppp) – 58.218 mlrd\$, aholi jon boshiga 2.457 \$dan to'g'ri keladi. YaIM(nominal) – 25.131 mlrd\$, aholi jon boshiga 1.061 \$dan to'g'ri

keladi. Shimoliy Yaman Ottoman imperiyasining, Janubiy Yaman esa Birlashgan Qirollikning mustamlakasi bo'lgan.

Somali iqtisodiyoti.

Somali tabiiy resurslari juda kam bo'lgan va dunyodagi eng qashshoq vajuda kam rivojlangan mamlakatlardan biri hisoblanadi. BMTning 2007-yil Somali xizmat sanoati davlat uchun juda ham omadli sohadir deya ma'lum qildi. Past daromadli davlat bo'lgani sababli 5-6 yil ichida u qadar katta o'zgarish sodir bo'lmaydi. 2007-yil YaIMining hajmi 7.599 mlrd\$ bo'ldi va u aholi jon boshiga 795 \$dan to'g'ri keldi. Baliqchilik sohasida yaxshi sohalardan biri hisoblanadi. Go'sht, banan, shaker kabi mahsulotlar eksport kam qiladi. Hozirda bu davlatga AQSh va Xitoy deyarli bir xilda e'tibor qaratmoqda.

Somaling iqtisodiy indicatorlari⁸

Iqtisodiy Indicatorlar	Qiymati
YAIM Jon boshiga (PPP)	\$5.733 mlrd
YAIM (nominal)	\$2.731 mlrd
YAIM - jon boshiga	\$600
Ishchi kuchi	3.447 million

O'mon sultonligi iqtisodiyoti.

2009-yil kunlik neft ishlab chiqarishi hajmi 810,000 barel bo'lgan O'mon Sultonligi iqtisodiyoti ham Fors Ko'rfazi davlatlari safiga kiradi. Asosiy tushum neft mahsulotlari sotishdan tushadi. 2009-yilgi iqtisodiyotidagi aayrim ko'rsatkichlar: YaIM(ppp) – 74.431 mlrd\$, aholi jon boshiga 25,109 \$dan to'g'ri keladi. YaIM(nominal) – 35.395 mlrd\$, aholi jon boshiga 18,013 \$dan to'g'ri keladi. Aholisi 2010-yil 2,694,000 kishiga yetdi. 2009-yil inflyatsiya darajasi 9.4%, 1 riyol= 2.59\$ ko'rinishini olgan. Asosan BAAdan 23.8%, Yaponiyadan 15.7%, Birlashgan Qirollikdan 10.5%, AQShdan 6.5% va Germaniyadan 5.1% tovar va xizmatlar import qiladi. Eksport tushumlarining 67%i neft va 11%i gazdan tushadi.

⁸ "Wikipedia, the free encyclopedia, Somali" ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Falastin iqtisodiyoti.

Hozirda Isroil davlati bilan hech kelisha olmayotgan bu davlat iqtisodiyotini boshqarish, 2ga bo'linib qolgani uchun, ancha qiyin kechmoqda. Ayrim iqtisodiy ko'rsatkichlari quyida keltirilgan. YaIM(ppp) – 12.79 mlrd\$, aholi jon boshiga - 2,900\$ (2009-yil). YaIM real o'sish sur'ati – 7%, ishsizlik darajasi – 16.5%(2010-yil).

2. Arab mamlakatlari rivojlanish tendensiyalari va o'ziga xos xususiyatlari.

Arab mamlakatlari iqtisodiyotiga nazar soladigan bo'lsak ularning iqtisodiyotida o'ziga yarasha afzalliklarning guvohi bo'lishimiz mumkin. Quyida har bir arab mamlakatining iqtisodiyoti rivojlanishiga sabab bo'lgan asosiy omillari haqida ma'lumotlar keltirib o'tiladi. Umumiy holatda fikr bildiradigan bo'lsak, arab davlatlarining asosiy qismi o'zida mavjud tabiiy resurslar va rivojlangan mamlakatlar ko'magi orqali ancha iqtisodiyotini rivojlantirib, takomillashtirib olgan. Arab davlatlari xususida gapirganda, albatta, Fors ko'rfazi haqida ozgina ma'lumot berib o'tish lozim deb topdim.

Fors ko'rfazi (fors. خليج فارس — Xalij-e Fârs, الخليج الفارس - al-Khalīj al-fars) — Eron va Arabiston yarimoroli o'rtasidagi ko'rfaz. Ormuz bo'g'ozi orqali O'mon ko'rfazi, Arabiston dengizi va Hind okeani bilan birlashgan.

Quyidagi davlatlar qirg'oqlari Fors ko'rfazi bilan yuvilib turiladi: Eron, Birlashgan Arab Amirliklari, Saudiya Arabistoni, Qatar, Bahrayn, Quvayt, Iroq va O'mon. Ko'rfazga Tigris va Yevfrat daryolari kelib qo'yiladi.

Fors ko'rfazi neft zahiralariga boy bo'lganligi bois geosiyosiy ahamiyatga ega hudud. Shundan 1991-yilgi urush Ko'rfaz urushi nomini olgan. (Aslida mojaroning katta qismi quruqlikda sodir bo'lgan bo'lsada.

OPEC tashkilotiga a'zo mamlakatlarning aksar qismi ham arab mamlakatlari hisoblanadi. 2007-yilgi ma'lumotlarga ko'ra unga a'zo mamlakatlar soni 15ta bo'lgan. Ulardan 7tasi arab mamlakati hisoblanadi.

Birlashgan Arab Amirligi.

Birlashgan Arab Amirliklari arab mamlakatlari orasida juda yaxshi rivojlanayotgan davlat hisoblanadi. Bunga dastlabki sabab unda katta miqdorda neft zaxirasi mavjudligi bo'lsa, qo'shimcha ravishda alyuminiy, sement, kemasozlik va to'qimachilik sanoati yaxshi rivojlangan. Bundan tashqari Dubayda mavjud Erkin Iqtisodiy Zona ham BAA iqtisodiyotida alohida ahamiyatga ega. Sanoat sohasining 40% qismi muzlatkich va konditsioner ishlab chiqarishga yo'naltirilgan. U issiq o'lkalarga yaqin joylashganligi uchun ushbu mahsulotlarni eksport qilish xarajati kam bo'ladi. 1960-yil tashkil etilgan OPEC nodavlat tashkilotiga 1967-yil a'zo bo'lgan. Shu davrdan boshlab iqtisodiyotida anchagina siljish kuzatilgan. Asosiy aloqalari arab mamlakatlari bilan yo'lga qo'yilgan.

Qatar.

Qatar dunyoda gaz zaxirasi bo'yicha 3-o'rinda, aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YaIMiga ko'ra esa 1-o'rinda turadi. Qatar neft va gazga juda ham boy

davlat hisoblanadi. Qatar OPEC tashkilotining dastlabki a'zolaridan biridir va Ko'rfaz Hamkorlik Konsulligini tashkillashtirgan a'zosidir. Qatar xorijiy davlatlardan AQSh hamda Eron bilan katta hamkorlikka ega. AQShga Iroq va Afg'oniston davlatlari uchun ko'mak berishni maqsad qilib olgan harbiy bazalar qurishga ruxsat bergan va bu ikki davlat o'rtasidagi aloqalarning rivojlanishiga bir asos bo'ldi. Eron bilan aloqalarining tobora yaxshilanib borishiga sabab ikki davlat ham hududida gaz zaxirasining kattaligidir. Qatar bir necha yildan beri neft narxi o'sishi tufayli yuqori iqtisodiy o'sishga erishib kelmoqda. 2008-yil Qatar ketma-ket 8-marta budjetida katta profitsit bilan chiqqanligi aniqlandi. Iqtisodiy siyosati tabiiy gaz va neftga ixtisoslashmagan sohaga xususiy va xorijiy investitsiyalarni qabul qilishga qaratilgan. Neft va gaz zaxirasi katta bo'lsa ham, mamlakat YaIMisining 50%ini, eksportdan tushadigan tushumning 85%ini va hukumat daromadining 70%ini tashkil etadi.

Qatar Davlati arab dunyosida jadal rivojlanayotgan, nafaqat o'z mintaqasi, balki butun jahonda salmoqli nufuzga ega mamlakatlardandir. Uning yirik siyosiy anjumanlarga, sport musobaqalariga mezbonlik qilishi bunga misoldir. Qatar ilg'or innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy qilish, ilm-fanni rivojlantirish, sarmoyaviy faoliyat sohalarida ham arab mamlakatlari orasida yetakchilik qiladi.

Saudiya Arabistoni.

Saudiya Arabistoni, nafaqat arab mamlakatlari orasida, balki butun dunyo bo'yicha eng ko'p turist qabul qiladigan mamlakat hisoblanadi. Ya'ni musulmonlarning qurbi yetganlari 1 yilda 1 marta Makka shahriga Haj amalini bajargani borishadi. Bu davlatning iqtisodiyoti II jahon urushidan so'ng taraqqiy eta boshlagan. Chunki 1938-yil Al-Hasa hududidan topilgan neft koni Saudiyaning iqtisodiy gullab-yashnashini ta'minladi. Ammo bu zaxiradan unumli foydalanishni yetarli darajada eplay olmagan boisi 1950-yil hukumat defitsit bilan chiqdi. Aholi yashash sharoiti ham juda tez sur'atda o'sgan. 2010-yil Korrupsiya Holati Indeksi Saudiya Arabistonini 10 balli sistemada 4.7 ball bilan baholadi. Bu esa juda yaxshi

ko'rsatkich hisoblanadi. Mamlakatning korrupsiyalardan ancha toza ekanligi ham iqtisodiy taraqqiyotining bir omilidir.

Quvayt.

1961-yil 19-iyunda Buyuk Britaniyadan mustaqil bo'lgan Quvayt davlati iqtisodiyotida avval hech ham sodir bo'lmagan iqtisodiy o'sish kuzatildi. Bunga asosiy sabab mamlakatda neft sanoatining vujudga kelishi edi. Quvaytda topilgan katta miqdoddagi neft zaxirasi mamlakatga investitsiya oqimni ko'paytirdi. 1970-yil Gulf Oil va British Petroleum kompaniyalari bilan hamkorlikda faoliyat yuritayotgan Quvayt Neft Kompaniyasiga to'laligicha egalik qila boshladi. Iqtisodiyotining asosiy qismi neft bo'lgani bois bu holat Quvaytga katta imkoniyatlar yaratdi. Mamlakat neft zaxirasi va neft ishlab chiqarishda dunyoda 5-o'rinda turadi. Human development indeksi bo'yicha arab mamlakatlari orasida peshqadam davlatdir. Arab Ligasiga a'zo bo'lgach Quvayt iqtisodiyoti bevosita arab mamlakatlari bilan bog'landi. Bu unga ikkinchi iqtisodiyotini barpo qilishda muhim omil bo'ldi. Quvayt iqtisodiyotining yana muhim omillaridan biri marvarid, ziravorlar, yog'och va ot savdosi hisoblanadi.

Bahrayn.

Bahrayn O'rta Sharq va dunyoning boshqa davlatlari bilan bo'lgan savdo va xizmat aloqalari uchun asosiy markaz hisoblanadi. Bahraynda ham boshqa Fors ko'rfazi davlatlari kabi neft tarixdan iqtisodiyotning asosi hisoblanadi. Neft Bahraynda 1932-yilda, tezkor modernizatsiya natijasida kashf qilindi. Bu kashf Birlashgan Qirollik bilan yaqin aloqaga kirishishiga sabab bo'ldi va bu hududda Birlashgan Qirollik o'zining ba'zalarini barpo etdi. 1970-yillardagi neft narxining oshishi mamlakat iqtisodiyotiga katta yordam bo'ldi. Livandagi 1970-yillarda sodir bo'lgan fuqarolik urushi natijasida yo'qotilgan katta bank sektori o'rniga

Bahrayn Bayrutda O'rta Sharqning moliyaviy markazini barpo etdi. AQShda "Heritage Foundation" jurnali tomonidan chop etilgan "Iqtisodiy Erkinlik Indeksi"ga ko'ra Bahrayn O'rta Sharqdagi eng erkin iqtisodiyotli mamlakat ekanligi va Jahon bo'yicha esa 10-o'rinda turishi ma'lum bo'ldi. 2008-yil London shahrining Global Moliyaviy Markazlar Indeksi Bahraynni dunyoning eng tez rivojlanayotgan moliyaviy markazi deya nomladi. Bank va moliyaviy xizmatlar sektori deyarli islomiydir.

Liviya Jamahiriyasi.

Liviya davlati 1951-yil mustaqil bo'lgan bo'lsada, 8 yil mobaynida qashshoqligicha qolgan. 1959-yildan boshlab katta miqdordagi neft zaxirasi aniqlangach bu qashshoq mamlakat o'rnida boy bir davlat paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Bu davlat Britaniya AQShga o'z hududida harbiy baza qurishiga ruxsat beradi va evaziga katta iqtisodiy yordam talab qiladi. 1955-yil Sovet Ittifoqi bilan mustahkam diplomatic aloqalar o'rnatadi. 2009-yil Liviya prezidenti M.Gaddafi 1 yil muddatga Afrika Ittifoqi raisi etib saylanadi. Liviya iqtisodiyotini faqat neftga bog'lab qo'ymaslikka harakat qilmoqda. Eksportdan tushadiga tushumlarning deyarli 100%ini tashkil qiladigan neft sohasi YaIMda 25% gina hissaga ega. Iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish borasida ko'plab milliy va xalqaro ishlarni amalga oshirmoqda. Ammo so'ngi paytlarda sodir bo'layotgan namoyish Liviya iqtisodiyotida orqaga ketishga sabab bo'lmoqda. 1980-yillarda Liviya dunyodagi eng boy davlatlardan biri bo'lgan. Tuprog'i unumsiz va iqlimi yetarli darajada yaxshi bo'lmagani sababli 75% oziq-ovqat mahsulotlarini import qiladi. 28% aholisi toza suvdan bahramand bo'la olmaydi. Bu Liviya iqtisodiyotini orqaga tortuvchi asosiy unsur hisoblanadi.

Iordaniya.

Aholisi kam daromadli bo'lishiga qaramay, Iordaniya davlatining shaharlashish darajasi yuqori hisoblanadi. Iordaniya iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlovchi siyosat olib borganligi sababli u O'rta Sharqdagi eng erkin

iqtisodiyotli mamlakatlardan biri deb topildi. 1987-yil mamlakatda gaz zaxirasi topilgan. Hajmi 230mlrd.kub.metr ga teng bo'lgan. 1946-yil 25-mayda Birlashgan Qirollikdan alohida mamlakat bo'lib ajrab chiqqach ko'plab chet investitsiyalarini jalb eta boshladi. Bu soha oz miqdorda bo'lsada neft va gaz zaxirasi topilgunga qadar iqtisodiyotning asosy negizi hisoblangan.

Tunis.

1769-yil Tunis davlati o'zini bankrot deb e'lon qilgach mamlakatda xalqaro moliya komiteti boshqaruvni o'z qo'liga oldi. Unumdor tuproq sohibi bo'lgan bu davlat 1883-1956 yillar oralig'ida Fransiya mustamlakasi bo'lgan. Tarixdan nazar soladigan bo'lsak Italiya va Fransiya bu davlatni o'ziniki qilib olishga harakat qilishgan. Shu raqobat natijasida Tunis bankrotlik holatidan chiqib olgan. Yevropa mamlakatlariga juda yaqin joylashganligi mustaqillikka erishgandan so'ng o'z samarasini bera boshladi va bermoqda. Bu davlat Arab ligasi va Afrika Ittifoqining faol a'zolaridan biridir. Turizm sohasi ham yaxshi rivojlangan. Tunis Fors ko'rfazi davlatlaridan, asosan, Birlashgan Arab Amirligidan katta miqdorda investitsiya qabul qiladi.

Jazoir.

Jazoir hududining kattaligi bo'yicha Afrika qit'asida Sudandan keying 2-o'rinda turadi. Ammo regioni katta bo'lgani bilan asosiy qismi sahroi kabirni tashkil etadi. U Arab ligasi, BMT, Afrika Ittifoqi va OPEC tashkilotlari a'zosi. 20-asr boshlarida Fransiya, Ispaniya, Italiya va Malta davlatlaridan ko'plab ko'chmanchilar ko'chib borishgan va samarali qishloq xo'jaligi texnikalaridan foydalangan holda ancha miqdordagi unumsiz yerlar o'zlashtirilgan. 1962-yil mustaqilligini e'lo qilguncha Fransiyaning tarkibiy qismi sifatida 1952-yil tuzilgan Yevropa ko'mir va po'lat komiteti a'zosi bo'lgan. 1965-yildan so'ng ko'plab o'z

hududidagi barcha resurslarga to'la egalik qila boshladi. Neft zaxirasini to'laqonli o'zlashtirib olishi 1973-yilgi neft inqirpi davrida mamlakatga katta foyda keltirdi. Shu davrdan boshlab iqtisodiy ahvoli ancha yaxshilana boshlagan.

Misr.

Misr arab mamlakatlari orasida iqtisodiyoti diversifikatsiyalashgan davlatlardan biri hisoblanadi. Eng qadim tarizni o'zida mujassamlashtirgan bu davlatning rivojlanish tendensiyalari asta-sekinlik bilan, ma'lum bir tempda kechgan. Mamlakatda dehqonchilik, ovchilik, parrandachilik, kulolchilik va konchilik avvaldan yaxshi rivojlangan. Hozirda ham o'zida oltin qazib olinuvchi ko'plab tog'lari mavjudligi mamlakatga bir tomondan katta ko'makdir. Misr qadimdan sivilizatsiya markazi bo'lib kelganligi bois turizm sohasi ham yaxshi rivojlangan. Hozirdagi namoyishlar Misr uchun katta ziyon keltirdi, bank tizimi, birja, savdo sohasi kabi asosiy tarmoqlar faoliyati to'xtab qoldi.

Sudan.

Sudan Janubiy Afrika qit'asidagi hududi eng katta bo'lgan davlat hisoblanadi. Bu katta hudud iqtisodiy rivojlanishning bir omilidir. Qolaversa, bu davlat Fors ko'rfazi mamlakatlariga yaqin joylashganligi sababli bu davlatlar bilan mustahkam iqtisodiy aloqalarga ega. Sudan uchun eng katta muammolardan biri mamlakatda korrupsiyaning yuqori ekanligi. U dunyodagi korrupsiya kuchaygan 10 davlatdan biridir. Bu holat ushbu davlatga xorijiy investitsiya oqimining kamayishiga asosiy sabablardan biridir. Eksport tovarlari paxta, yog' olinadigan o'simliklar va neft hisoblanadi. Bu davlatning aholi jon boshiga tto'g'ri keluvchi YaIMi pastligidan ko'rishimiz mumkinki, iqtisodiy taraqqiyotiga katta doirada ta'sirga ega resurs va omillar mavjud emas. Mamlakatda yengil va og'ir sanoat o'rta darajada rivojlangan. Yetkazib berish ishlari hukumat daromadida katta hissaga ega.

Marokash.

Marokash shu mamlakatning 2-tili hisoblangan “berber” tilidan tarjima qilinganda “Xudoning yeri” ma’nosini beradi. Bu davlat 2004-yil AQSh va Yevropa Ittifoqi bilan Erkin Savdo bitimini imzoladi. Katta hududi Jazoir bilan chegaradosh bo’lishiga qaramay, 1994-yilga qadar o’rtalaridagi chegara yopiq bo’lgan. Bu unga Afrika mamlakatlari bilan savdo aloqalarida anchagina qiyinchilik tug’dirgan. Atlantika okeani qirg’og’ida joylashganligi bu davlatga kemasozlik va port sohasidan unumli foydalanish imkonini beradi. Italiya, Turkiya va Fors ko’rfazi davlatlariga dengiz orqali Shimoliy va Janubiy Amerika qit’asidan keladigan kemalar uchun Kenitra va Tanjer portlari bunyod etilgan. Bu portlar uning boshqa davlatlar bilan savdo aloqalarini yaxshilashda bir omil sifatida rol o’ynaydi.

Iroq.

Uzoq muddat davomida juda ko’p turtki yegan davlatlarning peshqadami bo’lmish Iroq iqtisodiyotining asosini neft tashkil etadi. O’tgan asrning 90-yillarida Eron bilan bo’lgan 8 yillik urush ham Iroq iqtisodiyotiga 100 mlrd\$ miqdorida zarar keltirib, neft eksporti darajasining tushishiga olib kelgan edi. Iroq katta niqdorda boshqa davlatlardan qarzдор. 2004-yil kreditor mamlakatlarning Parij Klubi qarzlarning 80%idan voz kechishdi. Bu Iroqqa yordam bergan bo’lmasada, uning yelkasidagi qarz yukini yengillashtirdi. Neft zaxirasi bo’yicha dunyoda 2-o’rinda turganligi sababli hozirda ko’plab xalqaro neft kompaniyalari bilan shartnomalar imzolamoqda. Ishlab chiqarish quvvati yuqori bo’lmaganligi uchun Iroq ayni damda talab etilayotgan neftning yarminigina yetkazib bera olmoqda xolos. 2003-yilgi voqealardan so’ng BMT va World Bank katta hajmdagi loyihalar bilan Iroq iqtisodiyotiga ko’mak berishni rejalashtirib, amalga oshirib kelmoqda.

Suriya.

Suriya o’rta daromadli mamlakatlardan biri hisoblanadi. Iqtisodiy ahvolining yaxshilanishi qishloq xo’jaligi, neft, sanoat va turizm sohasini rivojlantirish orqali amalga oshirilgan. Oxirgi yillarda Suriya uchun samarali bo’lgan ishlardan biri

2005-yildan boshlab kuchga kirgan GAFTA(Greater Arab Free Trade Area)ning tashkil topishi bo'ldi. Bundan tashqari 2007-yil Turkiya bilan erkin savdo kelishuvini imzolagan va Yevropa Ittifoqi bilan ham aloqalari yaxshilana boshlagan edi. Ammo hozirda hukumat sektorining unchalik kuchli emasligi, neft ishlab chiqarish darajasi yaxshi yo'lga qo'yilmagani, mamlakatda neft taqchilligining oshishi, keng ko'lamli korrupsiya, hukumat moliya bozori zaif ekanligi, yuqori darajadagi ishsizlik davlat iqtisodiyotini orqaga tortib turgan asosiy omillar hisoblanadi. Hozirada Suriyada sodir bo'layotgan namoyishlar ma'lum bir sohalar faoliyatining to'xtashiga sabab bo'lmoqda.

Mavritaniya.

Afrika davlatlarining deyarli barchasi o'tgan asrning 50-60 yillaridan boshlab Yevropaning ayrim davlatlaridan ajrab chiqa boshlagan. Davlatda tartibli bir tizim mavjud emasligi iqtisodiy rivojlanishiga halal beruvchi omil bo'lib xizmat qilgan. Asosiy ishchi kuchi qishloq xo'jaligi va chorvachilikda band bo'lganligidan uning Janubiy Afrikadagi eng past YaIMga ega davlatlardan biri ekanligiga hayron bo'lmasak ham bo'laveradi. Iqtisodiyotida temirning o'rni katta ahamyatga ega. Hukumat 1999-yil mart oyida Jahon banki va Xalqaro valyuta fondi bilan 54 mln\$ miqdorda strukturaviy holatni yaxshilashga qaratilgan pul missiya qilishi yuzasidan kelishuv imzoladi. Mamlakatda unega katta bo'lmagan neft zaxirasi 2001-yil topilgan. Yuqorida sanab o'tilganlar oz bo'lsada Mavritaniyaning rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Livan.

Livan o'tgan asrda k'plab urushlarga aralashishi natijasida barcha sohada barqarorlik tushunchasi bu davlatga yot bo'lgan. Quyida 1972-1982 yillarda YaIMida kuzatilgan holatlardan ham ko'rishimiz mumkin:

*Livanning YaIMida inqiroz sababli turg'unsizlik ko'rinishi*⁹

⁹ "Wikipedia, the free encyclopedia, Lebanon" ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Yillar	1972	1973	1974	1975	1976	1977	1978	1979	1980	1981	1982
YaIM o'zgarishi (%da)	12.20	4.70	2.40	-30.30	-57.00	67.70	-2.60	2.40	1.50	0.60	-36.80
YaIM jon boshiga (AQSh\$, hozirgi qiymatda)	893	1132	1423	1186	527	1005	1091	1274	1526	1470	1006

Livan Arab ligasi bilan birga Francophone mamlakatlar safiga ham kiradi. Bu unga ayni damda yaxshigina iqtisodiy yordam bo'lishi ta'biy. Mamlakat iqtisodiyotining 1/5 qismi, ya'ni 8.2 mlrd\$ miqrodagi summa chetdagi rezidentlaridan keladi. 2006-yilgi Livan urushiga qadar bank aktivlari yuqoriligi hisobiga mamlakatda jadal o'sish kuzatilgan. Moliya sohasining maxfiyligi va serdaromadligi arab mamlakatlari orasida o'ziga yarasha o'rin olishiga sabab bo'ldi. Turizm va bank sohasi iqtisodiyotda xizmatlar sohasi ahamyatining oshishiga olib kelgan. Ammo davlat tashqi qarzi YaIMning 150.7%iga tengligi kelajakda ma'lum muammolar keltirib chiqarishi mumkin. Bu ko'rsatkich bilan u jahonda 4-o'rinda turadi.

Komor orollari.

Bu arab mamlakatlari orasida ushbu hududda keng tarqalgan tashkilotlardan 5 tasiga a'zo bo'lganligi bilan ajralib turadi. Mamlakat 1975-yil mustaqilligini qo'lga kiritgan. Dunyodagi eng qashshoq mamlakatlardan biri hisoblangan Komor orollarining asosiy maqsadi iqtisodiyotning o'sishiga va qashshoqlikning kamayishiga erishish hisoblanadi. Iqtisodiyotida o'ziga xoslik mavjud emas. Rivojlanish tendensiyasi haqida gapirish uchun bu mamlakat iqtisodiyotida katta o'zgarishlar va siljishlar kuzatilgan bo'lishi lozim. Globallashuv sharoitida baliqchilik, ovchilik va o'rmonchilik ma'lum darajada o'sgan. Qolaversa, juda ko'p kelishuvlar imzolagani va tashkilotlarga a'zoligi ham bu mamlakatga

investitsiya oqimining kengayishiga va taqchil hisoblangan oziq-ovqat muammolarini hal bo'lishiga sal bo'lsada ijobiy ta'sir etmoqda.

Jibuti.

Jibuti iqtisodiyoti strategik joylashuvi bilan bog'liq xizmat faoliyatiga asoslanadi. Aholining 2/3 qismi poytaxt shaharda yashaydi. Yog'ingarchilik yetarli bo'lmagani sababli qishloq xo'jaligida ayrim muammolarga ega. 2005-yil BMTning Jahon oziq-ovqat dasturi Jibutida 30,000 kishi jiddiy oziq-ovqat tanqisligiga uchrashini ogohlantirgan. Mamlaktda bir nechta tabiiy resurs turlari mavjud, ammo sanoati hajmi kichik. Hukumat daromadining asosini Turkiya, Saudiya Arabistoni, Fransiya, AQSh va Dubaylik mehmonxona menejerlari, neft injinerlari, bankerlar, harbiylar va investorlarning Jibuti porti xizmatlaridan foydalanishidan tushgan daromadlar tashkil etadi. Oxirgi 7yil ichida sodir bo'lgan resessiya, fuqarolar urushi va yuqori aholi o'sish natijasida insonlarning iste'mol darajasi 35% tushgan.

Yaman.

Arabiston yarim orolida respublika tuzilishiga ega yagona davlat bo'lmish Yaman shu hududning eng qashshoq mamlakati hisoblanadi. Bu davlatda neft zaxirasi juda oz va 2017-yilga qadar bu zaxira tamom bo'lishi bashorat qilingan. Neft ishlab chiqarishi kam bo'lishiga qaramay hukumat eng katta daromadini neftga solinadigan soliqlardan oladi. Ammo tabiiy gaz zaxirasi neftga qaraganda ancha yaxshi ko'rinishga ega. 1994-yilgi fuqarolik urushidan so'ng hukumat Xalqaro valyuta fondi bilan kelishuv imzolaydi. XVJ muayyan dastur ishlab chiqadi. Bu dasturga ko'ra mamlakat moliya va valyuta tizimini qayta shakllantirish, budjet defitsitini kamaytirish va subsidiyalarni qisqartirish maqsad qilib qo'yilgan edi. 1996-2000 yillar uchun Jahon banki va XVF tomonidan 5 yillik reja asosida mamlakatda anchagina reformalar amalga oshirildi. Natijada iqtisodiy holat avvalgi yillarga qaraganda o'zgardi.

Somali.

Somali dunyodagi eng kambag'al va kam rivojlangan mamlakatlardan biri hisoblanadi. Somali iqtisodiyoti avvaldan fuqarolar urushi va suv toshqinlaridan shikast yeb kelgan. Mamlakat uchun avvaldan baliqchilik, ovchilik va chorvachilik katta foyda keladigan soha hisoblangan. Hukumat boshqaruvi yetarli darajada yaxshi bo'lmagani uchun davlatda xususiy sector ulushi katta bo'lgan. Xususiy sector ham, asosan, chorvachilik va baliqchilik sohalarida rivojlangan. Hatto chorvachilik mamlakat Yalpi milliy daromadining 40%ini, yalpi eksportdan tushumning 65%ini tashkil etishi ham bu davlatda rivojlanish tendensiyalari aynan shu sohalarga bog'lanib qolganligiga dalolat qiladi. Sanoat sohasi esa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlab chiqarishga moslashgan.

O'mon.

O'mon saltanati, tarixan, Ko'rfaz-Hind okeani savdosiga baliqchilik tufayli bog'lanib qolgan. Bu davlat rivojlanish tendensiyasiga nazar soladigan bo'lsak 1976-yildan boshlangan 5 yillik rejalar asosida mamlakatda ma'lum darajada o'sishga erishilganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Bu rejalar 1995-yil nihoyasiga yetgan. Ammo 2006-2010 yillar uchun 5 yillik reja tuzilib, bu rejaga ko'ra inson omilini oshirish va neftga bog'liq bo'lmagan sektorlarning yalpi ishlab chiqarishdagi ulushini ko'paytirish maqsad qilib qo'yilgan. Kuniga 700,000 bareldan ishlab chiqariladigan neft hamda 91 mlrd.metr.kub zaxirasi mavjud gaz hukumat daromadining asosini tashkil etadi. Hozirdagi islohotlar samarasi o'laroq neft va gazning YaIMdagi ulushi 38.5%ga tushgan. Chegarasining katta qismi suv bilan o'ralgani sababli davlat okeanga chiqishda hech qanday qiyinchilikka duch kelmaydi.

Falastin.

Falastin G'arbiy Bank, Sharqiy Yerusalim va Gaza hududlarini o'z ichiga oladi. 1990-yil ma'lum egallangan hududlarda katta miqdorda ishchilar ishlayotgan 3,700ta kompaniya mavjud edi. Bu kompaniyalarning barchasi oziq-ovqat, tamaki va ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarar edi. Falastin iqtisodiyoti

chetdan olinadigan donor yordamlarga bog'lanib qolgan. Katta muammolaridan biri Isroil davlati Falastinning ichkarisida ham, tashqarisida ham tovar, xizmat, aholi va moliya harakatlarini boshqarishidir. Qolaversa, eksport tovarlarining 98% qismi Isroil va Iordaniyadan o'tmaydi. Eng katta muammosi esa ishsizlik hisoblanadi.

3. Jahon savdosi va arab mamlakatlari

2008-yil Jahon banki dunyo mamlakatlarini guruhlab chiqqan darajaga ko'ra arab mamlakatlarini quyidagicha tasniflash mumkin:

- 1) Yuqori daromadli mamlakatlar: Saudiya Arabistoni, Qatar, Birlashgan Arab Amirliklari, Quvayt va Bahrayn;
- 2) Yuqori o'rta daromadli mamlakatlar: Livan, Liviya va O'mon;

- 3) Past o'rta daromadli mamlakatlar: Jazoir, Jibuti, Misr, Iroq, Marokash va Tunis;
- 4) Past daromadli mamlakatlar: Komor orollari, Mavritaniya, Somali, Sudan va Yaman.


Jahon savdosi va arab mamlakatlari deganda turli iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha arab davlatlarining jahon bo'yicha ulushi, qaysi sohalarda shu davlatlar yetakchi ekanligi va jahonda ajralib turuvchi kategoriyalari haqida ma'lumot berishni maqsad qilib olgan edim. XXI asr texnika taraqqiyoti asri ekanligi ko'plab ta'kidlab o'tilgan fikrdir. Texnika taraqqiyotiga esa energetika sohasi bilan hisob-kitob qilmay erishib bo'lmaydi. Energetika sohasida esa asosan arab mamlakatlari ulushi katta hisoblanadi. Energetika muammolarini biroz bo'lsada yengillatish maqsadida Jazoir, Misr, Iordaniya, Livan, Liviya, Marokash, Falastin, Suriya, Tunis va Yaman davlatlari tomonidan 2008-yil Qohira shahrida RCREE(regional center for renewable energy and efficiency) tashkil etildi. Va yana Yevropa va MENA davlatlari o'rtasida energetikaning o'rinbosar variantlarini ishlab chiqish maqsadida ko'plab tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Bunga misol qilib MEDENER, MEDREG, MEDELEC, MENAREC va MEDREP tuzilmalarini keltirishimiz mumkin.

O'tgan asrda va XXI asr boshida sodir bo'lgan inqirozning sababini iqtisodchi olimlar neftga bog'lashmoqda. Neft zaxirasi bo'yicha ham, uni ishlab chiqarish bo'yicha ham arab mamlakatlariga teng keladigani yo'q. Quyida keltiriladigan grafikdan biz 2009-2035 yillarda neft ishlab chiqarish bo'yicha davlatlar tartibini ko'rishimiz mumkin.

Yuqori neft zaxirasiga ega 15 mamlakat, 2009-yil oxiri.¹⁰

¹⁰Xalqaro energetika agentligi, World energy outlook 2010, 114-bet.

Figure 3.13 • Proven oil reserves in the top 15 countries, end-2009



Neft zaxirasi bo'yich ham olib qaraydigan bo'lsak, yana Saudiya Arabistonini peshqadamligini ko'rishimiz mumkin. Bu zaxira shu tartibda ishlab shiqarish davom ettiriladigan bo'lsa 40 yilga yetishi mo'ljallangan.

Arab mamlakatlari orasida Saudiya Arabistonini alohida ta'kidlab o'tishimning boisi shundaki, bu davlat kuchli 20 davlatlar safiga kiradi, ya'ni G20 ga a'zo. Ammo hozirda osmono'par binolari bilan mashhur bo'lib borayotgan Birlashgan Arab Amirliklari, zamonaviy texnologiyalar kashf qilish bo'yicha samarali yutuqlarga erishib kelayotgan Qatar davlatlari xususida ham ma'lumotlar berib o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi deb o'ylayman. Yuqoridagi grafikda neft zaxirasi bo'yicha yetakchi hisoblangan 15 mamlakat ro'yxati va ularda aniqlangan neft zaxirasi miqdori keltirib o'tilgan. Bu 15 mamlakatning 6 tasi arab davlatlari ekanligi bu hududlar naqadar strategik ahamyatga ega ekanligining bir nishonasidir. Arab mamlakatlari dunyo neft zaxirasining 2/3 qismiga egalik qiladi. Qolaversa, neft ishlab chiqarish bo'yicha ham bu mamlakatlar yuqori ko'rsatkichlarga ega. Ammo 2009-yilga kelib Saudiya Arabistonida ishlab chiqarish biroz sustlashgani va Rassiya'da ishlab chiqarish jadallashgani bois Saudiya Arabistoni neft ishlab chiqarishda peshqadamlikni qo'ldan boy berib qo'ydi. Bundan tashqari Iroq, Quvayt, Birlashgan Arab Amirliklari va Liviyada ham, yuqorida guvohi bo'lganimizdek, neft zaxirasi va ishlab chiqarish hajmi

yuqori hisoblanadi. Arab mamlakatlarining yana bir xususiyati hamma hududda ham topilavermaydigan meva va poliz ekinlariga juda boyligidir. Ayniqsa, Janubiy Afrika qit'asidagi arab mamlakatlari bu sohada yaxshi natijalarga erishib kelmoqda. Barcha arab mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro erkin savdo kelishuvi umumarab davlatlari rivojiga ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Misol uchun arab mamlakatlari eksport va import hamkorlari tarkibiga qarasak, katta ulush Saudiya Arabistoni, Qatar, Birlashgan Arab Amirliklariga tegishli ekanligining guvohi bo'lishimiz mumkin.

Arab mamlakatlarining dunyo bo'yicha yaxshi natijalar ko'rsatadigan sohalardan yana biri-bu ta'lim sohasi hisoblanadi. Bu davlatlarning ta'lim sohasiga ajratadigan mablag'iga nazar solsak, boshqa regionlarga qaraganda, boshlang'ich ta'lim uchun yalpi ichki mahsulotining katta qismini sarf qilishiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Ammo, bu mamlakatlarda maktablarda tahsil olmayotgan o'quvchilar soni ham boshqa hududlarga qaraganda ko'pchilikni tashkil etadi. Ta'lim sohasiga katta mablag'lar to'g'ri kelishining asosiy sababi yuqori va yuqori o'rtacha daromadli mamlakatlarning hissasi kattaligidir. Past daromadli Sudan va Yaman kabi mamlakatlarda ta'lim sohasi yaxshi bo'lmagani uchun maktablarda tahsil olmaydigan o'quvchilar soni ko'pligi hisobiga arab davlatlarida bu ko'rsatkich bo'yicha umumiy hisobda unchalik yaxshi bo'lmagan vaziyat mavjud hisoblanadi. Globallashuv jarayoni sodir bo'layotgan bir paytda savodxonlik asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Chunki yutrboshimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov ta'kidlaganidek: "Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta, baxtli bo'lishlari shart". Quyidagi jadvalda 2004-yil regionlar bo'yicha ta'lim sohasiga ajratilgan sarflar haqida ma'lumot keltirilgan:

Boshlang'ich ta'lim uchun davlat xarajatlari, regionlar bo'yicha¹¹


Public expenditures on primary education, by region, 2004			2q
Region	Total expenditure on education (percent of GDP)	Expenditure on primary education (percent of GDP)	Expenditure on primary education as share of total expenditure on education (percent)
Arab states	4.9	1.8	37
Central Asia	2.8	0.6	21
Central and Eastern Europe	4.2	1.1	26
East Asia and Pacific	2.8	1.0	36
Latin America and Caribbean	4.4	1.6	36
North America and Western Europe	5.6	1.5	27
South and West Asia	3.6	1.2	33
Sub-Saharan Africa	4.5	2.1	47
World	4.3	1.3	30

Note: Data are classified by United Nations Education, Scientific, and Cultural Organization regions.
Source: UNESCO Institute for Statistics, *Global Education Digest* 2007.

Ta'lim sohasi, ayni damda, xarajati katta bo'lgani bilan kelajakda o'z samarasiga ega hisoblanadi. Misol uchun, Qatar davlati 2022-yilgi futbol bo'yicha jahon chempionatiga mezbonlik qilish vazifasini olgandan so'ng issiqda maydon ustini to'sishga moslangan bulutsimon moslama loyihasini ishlab chiqishdi. Albatta, bunday ixtirolar ta'lim tizimi yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lsagina amalga oshirilishi mumkin. Maktablarda tahsil olmayotgan o'quvchilar haqida quyidagi jadvaldan ham siz o'zingizga ayrim ma'lumotlar olishingiz mumkin bo'ladi. Bu grafikda maktabni tashlab ketganlar, maktabga kech kirganlar va umuman maktabga bormagan o'quvchilar kabi 3 toifaga ajratilgan va shu tarzda rasniflangan.

¹¹2010 World Development Indicators, 58-bet.

*Maktabda ta'lim olmaydigan o'quvchilar soni*¹²



Maktabda tahsil olmaydigan o'quvchilarning soni dunyo bo'yicha 75.3 milliondan ortiq. Shularning deyarli yarmi Sub-sahara Afrikasiga to'g'ri keladi. Arab mamlakatlarida esa bu miqdor qariyb 1/13 qismni tashkil etadi.

Bundan tashqari Birlashgan Arab Amirliklarining Dubay shahrida 9ta erkin savdo hududi mavjud. Ayni damda esa yana 12ta erkin savdo hududi barpo etish bo'yicha qurilish ketmoqda. Bu erkin savdo hududlari arab davlatlari bilan boshqa

¹²2010 World Development Indicators, 59-bet.

mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro savdo aloqalarini rivojlantirishga katta hissa qo'shishi turgan gap. Bu mamlakatda bir amirlik ichidagi qo'ng'iroqlar tekinligi ham ayrim turdagi investitsiyalar oqimining oshishiga sabab bo'lmoqda. Arab mamlakatlari opasida bu davlat Saudiya Arabistonidan keyingi 2-o'rinda turadi. Quyida keltiriladigan jadvalda arab mamlakatlari qabul qilgan investitsiyalari hajmi keltirib o'tilgan:

2003-2008 yillarda arab davlatlariga kiritilgan investitsiyalari
(million dollar)¹³

Davlatlar/yillar	2003	2004	2005	2006	2007	2008
Saudi Arabia	778	1 942	12 097	18 293	24 318	38 223
BAA	4 256	10 004	10 900	12 806	14 187	13 700
Qatar	625	1 199	2 500	3 500	4 700	6 700
Bahrayn	517	865	1 049	2 915	1 756	1 794
Quvayt	- 68	24	234	122	123	56
Misr	237	2 157	5 376	10 043	11 578	9 495
Liviya	143	357	1 038	2 013	4 689	4 111
Livan	2 860	1 899	2 624	2 675	2 731	3 606
O'mon	26	111	1 538	1 688	3 125	2 928
Jazoir	634	882	1 081	1 795	1 662	2 646
Sudan	1 349	1 511	2 305	3 541	2 436	2 601
Marokash	2 314	895	1 653	2 450	2 803	2 388
Tunis	584	639	782	3 312	1 618	2 761
Suriya	160	320	583	659	1 242	2 116
Iordaniya	443	816	1 774	3 268	1 950	1 954
Iroq	- 0	300	515	383	485	488
Yaman	6	144	- 302	1 121	917	463
Jibouti	14	39	59	164	195	234
Mavritaniya	102	392	814	155	153	103
Somali	- 1	- 5	24	96	141	87

¹³ Inward FDI flows, by host region and economy, 1970 – 2008 ma'lumotlari.

Falastin hududi	18	49	47	19	28	29
Komor orollari	1	1	1	1	8	8
Jami	14 999	24 540	46 691	71 017	80 846	96 490
Dunyo	565 160	734 892	973 329	1 461 074	1 978 838	1 697 353

2004-yilga qadar Birlashgan Arab Amirliklari arab davlatlari orasida chetga eng ko'p investitsiya chiqargan davlat bo'lgan bo'lsa, 2005-yildan boshlab Saudiya Arabistoni bu ko'rsatkichda yetakchilikni o'z qo'liga oldi. Hozirda ushbu davlat arab mamlakatlariga kiruvchi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning 40% hissasiga ega. Asosiy qabul qiladigan investitsiyasi AQSh hisobiga to'g'ri keladi.

Dunyo bo'yicha qabul qilinadigan investitsiyalarning taxminan 5.7% qismi arab mamlakatlari ulushi hisoblanadi. Birlashgan Arab Amirliklari ham hozirda erkin savdo hududlari barpo etish orqali qabul qilinadigan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalari hajmini oshirishga harakat qilmoqda.

Investitsiyadan keladigan foydani iqtisodchilar juda yaxshi bilishadi. Arab davlatlarida sodir bo'layotgan hozirgi vaziyatlar ushbu davlatlar iqtisodiy ahvoliga katta miqdorda zarar keltirdi. Shu bilan bir qatorda bu davlatlarga investitsiya kirituvchi investorlar ham, ko'cha tili bilan aytadigan bo'lsak, pattasini yelkasiga ortib jo'nab qolishmoqda.

Quvayt davlati esa yuqori daromadli arab mamlakatlari orasida eng kam ta'kidlab o'tilgan investitsiya turini qabul etadi. Buning asosiy sababi shundaki, davlatning o'z ichki investitsiya qobiliyati yuqori va tashqi investitsiyaga deyarli muxtojligi yo'qligidir. Lekin chetga shu turdagi investitsiyani katta hajmda chiqaradi.

Ayrim tadbirlar hisobiga Jazoir, Iroq, Liviya, Suriya va Yaman respublikasi 2008-yilgi inqirozda Fors ko'rfazi davlatlariga qaraganda kamroq ta'sir bilan chiqdi.

Misr davlati ham hozirgi voqealar sodir bo'lguncha katta miqdorda investitsiya qabul qilishini ham guvohi bo'lishimiz mumkin. Bu davlat iqtisodiyoti diversifikatsiyalashganligi uchun har doim investorlarga joy topilgan. Ammo oxirgi 6 oy ichidagi voqealardan so'ng iqtisodiyoti uzoq muddatda tikalanadigan holatga tushib qoldi.

*2003-2008 yillarda arab davlatlarining chiqargan investitsiyalari
(million dollar)¹⁴*

Davlatlar/yillar	2003	2004	2005	2006	2007	2008
BAA	991	2 208	3 749	10 892	14 568	15 800
Quvayt	- 5 016	2 581	5 142	8 240	10 156	8 521
Qatar	88	438	352	127	5 263	2 400
Bahrayn	741	1 036	1 135	980	1 669	1 620
Saudi Arabia	473	78	53	1 257	13 139	1 080
Liviya	63	- 286	128	- 534	3 933	5 888
Misr	21	159	92	148	665	1 920
Livan	611	827	716	875	848	987
Marokash	12	31	75	445	621	369
Jazoir	14	258	57	35	295	318
O'mon	88	42	234	275	243	329
Iroq	-	-	89	305	149	181
Sudan	-	-	-	7	11	98
Yaman	61	21	65	56	54	66
Suriya	57	48	61	55	55	57
Falastin hududi	49	9	43	129	44	45
Tunis	5	4	13	33	20	42
Iordaniya	- 4	18	163	- 138	48	13
Mavritaniya	- 1	4	2	5	4	4

¹⁴Outward FDI flows, by host region and economy, 1970 – 2008 ma'lumotlari.

Komor orollari	-	-	-	-	-	-
Jibuti	-	-	-	-	-	-
Somali	-	-	-	-	-	-
Jami	- 1 745	7 476	12 168	23 193	51 785	39 738
Dunyo	563 399	929 641	878 988	1 396 916	2 146 522	1 857 734

Investitsiya chiqarish bo'yicha yuqoridagi jadvaldagi ma'lumotlarga asoslangan holda shuni aytish mumkinki, Birlashgan Arab Amirliklari arab davlatlari orasida eng ko'p to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni chetga chiqaradi. Arab mamlakatlaridan chetga chiquvchi investitsiyalarning qariyb 40% qismi shu davlat ulushiga to'g'ri keladi. Buning asosiy sabablaridan biri ushbu davlatda aholining aksariyati boylar sinfiga mansub. Ya'ni yashash sharoiti juda yaxshi hisoblanadi. "Human Development Index" ma'lumotlariga ko'ra tuzilgan xaritada ham arab davlatlari orasida Qatar va BAAni juda yuqori sifatlagani tasvirlangan(Ilova-2 ga qarang).

Yuqorida ta'kidlab o'tganimdek, Quvayt davlati investitsiyalarni kam qabul qilib, ko'p chiqaradi. Avvalo o'z iqtisodiyotiga investitsiya kiritadi va chetga chiqaradigan investitsiyalari esa, asosan, mamlakatda yaxshi rivojlanmagan sohalarga yo'naltirilgan.

Saudiya Arabistoniga asosiy investitsiya AQShdan kirib keladi va chiqaradiganining katta qismi esa arab davlatlari hissasiga to'g'ri keladi.

Xulosa.

Jahon tajribasini o'rganish shundan dalolat beradiki, integratsiya davlatlarning jahon xo'jaligiga qo'shilishini rag'batlantirish uchun samarali, tub tashqi iqtisodiy siyosat ekanligini, barqaror iqtisodiy o'sishni, kapital jamg'arishni, iqtisodiyotda ilg'or texnologik va tarkibiy siljishlar yuz berishini, ishlab chiqarish, investitsiyalarni boshqarish va ularning sifatining oshishini ta'minlashidan dalolat beradi.

Arab mamlakatlari bilan O'zbekiston aloqalari hozirda jadal rivojlanib bormoqda. Buning bir misoli sifatida Qatar, Iordaniya, O'mon, Misr va Quvayt davlatlari bilan iqtisodiy, siyosiy, ma'rifiy va madaniy sohalarda uchrashuvlar amalga oshirilib, bitimlar imzolanayotganligini olishimiz mumkin.

Nafaqat O'zbekiston, balki dunyoning yirik davlatlari ham arab davlatlari bilan, asosan, Fors ko'rfazi mamlakatlari bilan oxirgi yillarda aloqalarini musahkamlashga harakat qilmoqda. Misol uchun AQSh va Kanada davlatlari Saudiya Arabistoni va Qatar kabi arab mamlakatlari o'rtasida mustahkam aloqalar o'rnatilgan.

Arab tili BMTning 6 rasmiy tilidan biri ekanligi ham arab olamining dunyo miqyosida alohida o'rni borligining bir misolidir. Arab tili bilan turk, urdu va fors tillari juda yaqin bo'lganligi sababli shu tillarda so'zlashuvchi davlatlar bilan ham aloqalari borgan sari mustahkamlanib bormoqda. Lekin bir kamchilik shundaki, arab davlatlarining barchasi uchun 1 gina rasmiy til (fus'ha) mavjud bo'lishiga qaramay, hudud bo'ylab turli xil dialektda gaplashiladi. Hozirda nafaqat arab olamida, balki VII-VIII asrlarda Islom dini kirib borgan barcha davlatda arab tili

darslik sifatida o'qitiladi. Buning asosiy sababi esa arab tilida hozirgacha aniqlanmagan boy qo'lyozma manba'larga egaligi hisoblanadi. Bu manba'larni o'rganish, tahlil qilish uchun esa arab tilini bilish asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Arab mamlakatlarining yana bir muhim jihatlaridan biri, bu davlatlarning Osiyo va Janubiy Afrika, Yevropa va Janubiy Afrika qit'alari uchun tranzit yo'l ekanligi.

Dengiz transporti faoliyatida bir qator afzalliklarga egaligi ham davlatlarning dunyo miqyosida ahamyatini oshiradi. Bu mamlakatlar Yevropa Ittifoqi bilan ham yaxshigina aloqaga ega. Globallashuv asri deya e'tirof etilayotgan bu asrda hech bir davlat chetda turgan holda, alohida ravishda rivojlana olmaydi. Shuning uchun ham O'zbekistonning arab mamlakatlari bilan aloqalarini yuqori baholasa bo'ladi. Ammo oxirgi paytlarda sodir bo'layotgan arab olamidagi voqealar biroz bo'lsada aloqalarimizning to'xtab turishiga sabab bo'lgan bo'lishi mumkin. Lekin biz keyinchalik bu munosabatlar avvajisidan ham mustahkam ko'rinish oladi deya umid qilib qolamiz.

Hudud bo'yicha katta joyni egallagani bilan bu hududda bepoyon Sahroi kabirning katta qismi joylashganligi birz bo'lsada zarar keltirishi tabiiy, lekin hozirda ushbu territoriyadan unumli foydalanish yuzasidan anchagina ishlar amalga oshirilmoqda. Shamoldan energetika olish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirildi.

Arab davlatlari ligasi 1945-yildan boshlab asta-sekinlik bilan shakllanib, hozirgi ko'rinishini olgan. Dastavval bunday liga tuzish taklifi Misr tomonidan o'rtaga tashlangan edi. 1990-yillarning o'rtalarida hozirgi 22 mamlakat to'la birlashgach arab davlatlari o'rtalarida davom etib kelayotgan birlikni rivojlantirishga harakat kuchaydi.

Arablarning eng katta siyosiy muammosi bu yahudiylarning Isroil davlati hisoblanadi. Bu davlat vujudga kelishiga asosiy sabab Janubiy Afrikaning shimoliy-g'arbiy qismidagi yahudiylarning quvib chiqarilishi edi. Keyinchalik

uyushgan holda Falastin o'rtasidan qad rostlagan bu davlat hozirda arab mamlakatlarining katta muammosiga aylanagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni, 2005-yil 11-aprel, PF 3549-son;
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Tashqi savdo faoliyatini yanada erkinlashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 1998-yil 31—mart.// Xalq so'zi, 1998.1-aprel.
3. Karimov I.A. "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari". T.: O'zbekiston 1997;
4. Isadjanov.A.A, G'ulomova.G.P,"Jahon iqtisodiyoti (I qism), Toshkent Islom Universiteti nashriyot-birlashmasi Toshkent-2008;
5. World Trade Organization International Trade Statistics Report 2009,
6. Organization for International Investment. Foreign Direct Investment 2009-yil;
7. World Bank, World Development Indicators, Washington, 2010;
8. Xalqaro energetika agentligi, Fransiya, World energy outlook 2010;
9. World bank annual report 2009 – year in review.

Internet materiallari:

1. <http://www.economywatch.com>;
2. <http://www.wikipedia.org>;
3. <http://www.worldbank.org>;
4. <http://www.imf.org>;

5. <http://www.wto.org>;
8. Outward FDI flows, by host region and economy, 1970 – 2008 ma'lumotlar;
9. Inward FDI flows, by host region and economy, 1970 – 2008 ma'lumotlar.

Ilovalar

Ilova-2¹⁵



Juda yuqori
 Yuqori
 O'rtacha

Past
 Ahvoli og'irlar

¹⁵ World map indicating the Human Development Index by Quartiles (based on 2010 data, published on November 4, 2010)

